

KO‘ZI OJIZ BOLALAR MUSIQA TA’LIMIDA INKLYUZIV TA’LIM SHART-SHAROITLARINING MAZMUN-MOHİYATI

Astanova Zumradxon toxirovna
ADPI Doktoranti

zumradastanova@gmail.com

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.21934256>

Annotasiya: Ushbu maqolada ko‘zi ojiz va zaif ko‘ruvchi o‘quvchilarning Bolalar musiqa va san‘at maktablaridagi inklyuziv ta‘limi va uning shart-sharoitlari, muammolari va yechimlari haqida fikrlar bayon etiladi.

Аннотация: В статье представлены представления об инклюзивном образовании слепых и слабовидящих учащихся в детских музыкальных и художественных школах, его условиях, проблемах и решениях.

Abstract: This article presents ideas about the inclusive education of blind and visually impaired students in Children's Music and Art Schools, its conditions, problems, and solutions.

Kalit so‘zlar: Inklyuziv ta‘lim, integratsiya, ko‘zi ojiz, zaif ko‘ruvchi, musiqa savodxonligi, Bolalar musiqa va san‘at maktabi.

Ключевые слова: Инклюзивное образование, интеграция, незрячие, слабовидящие, музыкальная грамотность, Детская школа музыки и искусств.

Keywords: Inclusive education, integration, blind, visually impaired, music literacy, Children's School of Music and Art.

Kirish: Bugungi kunda Respublikamizning har bir shahar va tumanlarida Bolalar musiqa va san‘at maktablari faoliyat yuritmoqda. Ushbu ta‘lim muassalari iqtidorli o‘g‘il-qizlarga san‘at sohasining turli yo‘nalishlari bo‘yicha boshlang‘ich talim-tarbiyani amalga oshirib kelmoqda. 2014 yildan boshlab tegishli qarorlar asosida yurtimizdagi barcha Bolalar musiqa va san‘at maktablari qaytadan ta‘mirlanib, yetarlicha moddiy-texnik bazasiga ega bo‘ldi, zamonaviy ta‘limni tashkil etish uchun zarur shart-sharoitlar yaratildi. Jumladan: yangi cholg‘u asboblari, texnik jihozlar, mebellar, darslik va adabiyotlar va hokazolar.

Tadqiqotimiz davomida ushbular orasida darsliklar masalasiga alohida to‘xtalib o‘tmoqchimiz. Hozirda Bolalar musiqa va san‘at maktablarining musiqa yo‘nalishlari bo‘yicha yakka cholg‘u, jamoa ijrochiligi hamda nazariy fanlardan qo‘llanma va darsliklar yetarlicha chop etilgan. Biroq mazkur darsliklar faqatgina yassi yozuvda, ya‘ni, ko‘rish bo‘yicha sog‘lom o‘quvchilarga mo‘ljallangan bo‘lib, Bolalar musiqa va san‘at maktablarida ko‘zi ojiz va zaif ko‘ruvchi o‘quvchilarning ham ta‘lim olishi e‘tibordan chetda qolgan. Natijada ko‘rish imkoniyati cheklangan bolalarning musiqa ta‘limida qator muammolar haligacha o‘z yechimini topmaganligi, bu borada ularning sog‘lom tengdoshlaridan bir muncha ortda qolayotganligi kuzatilmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi: O‘zbekiston Respublikasi Qonunchilik palatasi tomonidan 2020-yil 22-iyulda qabul qilingan, Senat tomonidan 2020-yil 11-sentabrda ma‘qullangan O‘RQ-641-sonli “Nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari to‘g‘risidagi” qonunining 8, 38, 40-moddalari asosida bugungi kunda ko‘zi ojiz bolalar ta‘lim-tarbiyasiga davlatimiz tomonidan katta e‘tibor va imkoniyatlar berilmoqda. Shuningdek, bu qonunning 8-moddasida qayd etilgan “Nogironligi bo‘lgan bolalarning rivojlanayotgan qobiliyatini va o‘z individualligini saqlab qolish huquqini hurmat qilish prinsipi” [1.] dan kelib chiqib nogironligi bo‘lgan bolalarni har tomonlama va uyg‘un rivojlantirish, ularning ijtimoiy faolligini oshirish, mehnatga bo‘lgan qiziqishiga ko‘maklashish, ta‘limga, ilm-fanga, texnikaga, san‘at va sportga jalb etish maqsadida nogironligi bo‘lgan bolalar manfaatlari, ularga nisbatan bajariladigan barcha harakatlarda ustuvorlik yaqqol seziladi.

Ushbu qonunning 38, 40-moddalarida yozilishicha, davlat organlari nogironligi bo‘lgan shaxslarning har biri uchun mosroq bo‘lgan tillarni, muloqot qilish usullari va vositalarini rivojlantirish, Brayl alifbosini, muqobil harflarni, nutq va og‘zaki muomala ko‘nikmalarini o‘zlashtirish, shuningdek o‘qituvchilarni va maktab xodimlarini inklyuziv ta‘lim masalalarida o‘qitish, imo-ishora tilini va Brayl alifbosini biladigan nogironligi bo‘lgan o‘qituvchilarni ta‘lim muassasalariga ishga joylashtirish yordamida nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun ko‘makdosh bo‘lgan loyihalar tahsinga sazovordir.

O‘zbekiston Respublikasi o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritgach, ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy sohaning barcha tarmoqlari kabi xalq ta’limining chet mamlakatlar ta’lim muassasalari bilan hamkorligi uchun keng imkoniyatlar ochildi.

Ayniqsa, Germaniya ta’lim vazirligi va o‘quv tarbiya jamoat tashkilotlari bilan o‘zaro aloqalar tobora rivojlanib bordi. “Garchi vazirliklar darajasida bitimlar imzolanmagan bo‘lsa-da, «Nemis xalqaro rivojlanish fondi», «Adenauer jamg‘armasi», «Gyote instituti» bilan munosabatlarning o‘rnatilishi Respublikamiz istiqloli bilan tengdoshdir. Shu munosabatlar doirasida seminarlar, konferensiyalar, darsliklar, ko‘rgazmalar, o‘zaro ta’lim sohasida tajriba almashtirishlar bo‘lib o‘tmoqda. Ayni paytda bu hamkorlikning yangi-yangi shakllari izlanmoqda” [2.]. “Germaniyada BMTning nogironlar huquqlari to‘g‘risidagi konventsiyasi kuchga kirganiga 10 yil bo‘ldi. Bu davr mobaynida Germaniya nogiron kishilarni qamrab olishni kuchaytirdi va ularning maktab orqali jamiyatga yanada integratsiyalashuvi yo‘lidagi to‘siqlarni bartaraf etdi” [3.347].

Ayni vaqtda O‘zbekistonda ko‘zi ojiz va zaif ko‘ruvchi o‘quvchilar o‘rta ta’limni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi ijtimoiy himoya milliy agentligi tasarrufidagi “Nurli maskan” ixtisoslashtirilgan maktab-internatlarida oladilar. “O‘zbekistondagi bunday maktablar tarixiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, 1929-yil Yo‘ldosh Oxunboboyev boshchiligidagi 1-ko‘zi ojiz bolalar uchun Parkent ko‘chasida 6-uyda maktab tashkil qilindi. Bundan so‘ng ketma-ket boshqa viloyatlarda ham maktablar ochildi. Buxoro viloyatida esa ko‘zi ojizlar bilim maskani 1953-yilda tashkil qilingan. Hozirgi vaqtda nogironligi bo‘lgan bolalarning 26,8 foizi ixtisoslashtirilgan maktablar va maktab-internatlarga qamrab olingan. Qabul qilingan inklyuziv ta’limni rivojlantirish konsepsiyasida 2025-yilgacha maktab-internatdagi bolalar sonini bosqichma-bosqich 16%ga qisqartirish va umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida o‘qiyotgan nogironligi bo‘lgan bolalarning ulushini hozirgi 16,5% dan 40% gacha oshirish ko‘zda tutilgan” [4.55].

Davlatimiz rahbari ko‘zi ojiz yoshlarning ta’lim-tarbiyasiga alohida e’tibor qaratib, bu borada bir nechta qarorlar imzolaganlar. Jumladan, 18.04.2022-sanadagi “Ko‘zi ojiz va zaif ko‘ruvchi bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab-internatlarda ta’lim berish sifatini oshirish hamda ular faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-209-sonli qarorida: “Madaniyat vazirligi (O.Nazarbekov), Xalq ta’limi vazirligi (B.Saidov), Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari bilan birgalikda “Nurli maskan” maktablarida san’at (musiq) yo‘nalishini rivojlantirish, o‘quvchilarning san’at yo‘nalishidagi iqtidorlarini ro‘yobga chiqarish maqsadida ularni hududlardagi musiqa va san’at maktablariga birliktirsin” [5.] deya ko‘rsatma berganlar. Mazkur qarorning ijrosiga binoan, Nurli maskan ixtisoslashtirilgan maktab-internatlar yaqin hududlarda joylashgan Bolalar musiqa va san’at maktablari bilan o‘zaro hamkorlikni yo‘lga qo‘ygan bo‘lib, ko‘zi ojiz va zaif ko‘ruvchi bolalar darsdan bo‘sh vaqtlarda ushbu musiqa va san’at maktablarida ham tahsil oladilar. O‘quvchilarning musiqa maktablariga borib kelishlariga bog‘liq muammolarni hal etish, ularga bu borada qulaylik yaratish maqsadida maktab-internatlarning o‘zida maxsus xonalar ajratilib, tegishli mutaxassis o‘qituvchilar jalb etilgan. Masalan: Toshkent shahridagi 77-son Nurli maskanda 17-BMSMning, Andijon viloyati Asaka tumanidagi 16-son Nurli maskanda 22-BMSMning, Farg‘ona shahridagi 1-son Nurli maskanda 3-BMSMning ko‘zi ojiz va zaif ko‘ruvchi o‘quvchilar uchun maxsus sinflari tashkil etilgan.

Bugungi kunda ko‘rish imkoniyati cheklangan o‘quvchilarning Bolalar musiqa va san’at maktablaridagi ta’limi “inklyuziv ta’lim” ko‘rinishidadir. “Inklyuziv ta’lim bu – davlat siyosati bo‘lib, nogiron va sog‘lom bolalar o‘rtasidagi to‘siqlarni bartaraf etish, maxsus ta’limga muhtoj bolalarni rivojlanishidagi nuqsonlari yoki iqtisodiy qiyinchiliklaridan qat’iy nazar ijtimoiy hayotga moslashtirishga yo‘naltirilgan umumta’lim jarayoniga qo‘shishni ifodalovchi ta’lim tizimidir” [6. 7].

Muhokama va natijalar: Bolalar musiqa va san’at maktablaridagi ko‘zi ojiz va zaif ko‘ruvchi o‘quvchilar uchun maxsus sinflarda ta’lim oluvchi o‘quvchilarning dars jarayonlarida bir qancha muammolar mavjud bo‘lib, jumladan, Brayl yozuviga qo‘llanma va darsliklarning mavjud emasligi, o‘qituvchilarning Brayl yozuvini bilmasligi, nota savodxonligi hamda nazariy bilimlarni o‘quvchilarga o‘rgatishda maxsus tiflopedagogik metodlarni joriy etilmaganligi kabilar tadqiqotimizning dolzarbligi doirasidagi masalalardir. Yuqorida qayd etilgan muammolar natijasida ko‘zi ojiz va zaif ko‘ruvchi o‘quvchilar sog‘lom o‘quvchilardan o‘rtada qolib ketmoqdaki, ularning musiqa nazariyasi va solfedjio, cholg‘u ijrochiligi kabi fanlardan ko‘pincha og‘zaki metod orqali ta’lim olayotganligi zamonaviy ta’lim sifati va talablariga mutlaqo to‘g‘ri kelmaydi. Izlanishlarning tahliliy natijalariga ko‘ra, o‘quvchilarning 70% o‘g‘zaki, 20% notalarni harf bilan yozish orqali, 10% yassi yoki Brayl notadan foydalangan holda dars mavzularini o‘zlashtirmoqdalar. Ma’lumki og‘zaki metodga asoslangan ta’lim uchun kuchli xotira egasi bo‘lish zarur. Inson xotirasi qanchalik kuchli bo‘lmasin unga yuklangan ma’lumotlar bazasi

kengaygani sari uni uzoq vaqt esda saqlash murakkablashadi, yani, asta-sekin unutiladi. Yozuvda muhrlangan ma'lumot esa takroran o'qib turish natijasida mustahkamlanib boradi. Nota yozuvining harflarga asoslanishi esa tovushlarning cho'zimlarini ifodalashning imkonsizligini isbotlaydi. Tovush cho'zimlatining noaniqligi hech qanday kuy jumlasini hosil qilmaydi. Shuning uchun ham o'quvchi o'zi yozgan harflar asosidagi tovushlarning ohangini tushuna olmaydi. Bu esa o'sha notalarni yozmagan va xatto umuman o'rganmagan bilan tengdir. Yassi yozuvdagi besh chiziqli nota yo'li tizimidan foydalanish zaif ko'ruvchi o'quvchilar uchun bir muncha foydalidir, biroq ko'zi ojiz o'quvchilar uchun mutlaqo imkonsiz. Brayl nota yozuvi ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchi o'quvchilar uchun birdek qulay bo'lib, mazkur yozuvda ham musiqiy savodxonlikdagi barcha belgi va alomatlarini ifodalash hamda ularni oson o'zlashtirish mumkin. Brayl nota yozuvini o'rgatuvchi metodlarning joriy qilinishi va uni respublika miqyosida amaliyotga tatbiq etilishi ko'zi ojizlarning musiqiy ta'limini mutlaqo yangi bosqichga olib chiqishi shubhasizdir.

Bugungi kunda ko'zi ojiz o'quvchilar Bolalar musiqa va san'at maktablarida musiqa sohasining turli yo'nalishlari bo'yicha tahsil olar ekan, u yerdagi inklyuziv ta'lim sharoitini tubdan yo'lga qo'yish dolzarblihicha qolmoqda. Chunki ko'zi ojiz bolaning ta'lim olishida muammolar talaygina. Dars jarayonida, sinfda va sinfdan tashqari faoliyatlarda ularga qiyinchilik tug'diruvchi omillarning mavjudligi, ta'limning bu turi bo'yicha mutaxassis pedagoglarning jalb etilmaganligi, pedagoglarni qayta tayyorlash, malakasini oshirish kabi vazifalarning amalga oshirilmayotganligi inklyuziv ta'lim imkoniyatlarini ochib bera olmayapti. Natijada ko'zi ojiz bola sog'lom tengdoshlaridan, ko'zi ojiz talaba sog'lom kursdoshlaridan, ko'zi ojiz mutaxassis so'lim hamkasblaridan qaysidir nuqtada bilim va malakasining yetishmasligidan aziyat chekmoqda. Muammoning yechimini topish uchun quyidagi asosiy vazifalarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:

- Bolalar musiqa va san'at maktablarida ta'lim oluvchi ko'zi ojiz o'quvchilar uchun musiqa nazariyasi fani bo'yicha darslikni Brayl yozuviga o'girish;

- Ko'zi ojiz o'quvchilarga Brayl nota yozuvini o'rgatish uchun tiflopedagogik metodlarni ishlab chiqish va ommalashtirish;

- Bolalar musiqa va san'at maktablarida inklyuziv ta'limni qaytadan isloh qilish, rivojlantirish, zarur mutaxassis pedagoglarni jalb etish.

Xulosa. yosh avlodni estetik jihatdan tarbiyalashda musiqaning o'rni beqiyos. Yurtimizda O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi tizimida ko'plab Bolalar musiqa va san'at maktablari faoliyat ko'rsatadi. Iqtidorli o'g'il-qizlar umumta'lim maktablari bilan birgalikda ushbu san'at maktablarida ham tahsil oladilar. Ijodkor bolalar o'zlarining xulq-atvori, odobi, xushfe'lligi bilan boshqa bolalardan ajralib turadilar. Ulardagi ushbu ijobiy fazilatlarini musiqa va san'at maktablaridagi jonkuyar o'qituvchilari shakllantiradi. Mazkur ta'lim muassasasidagi ustozlar samimiyligi, nafis qalb egasi ekanligi bilan boshqa soha ustozlaridan farq qiladilar. Shuningdek bu yerda ham boshqa ta'lim muassasalari kabi dars mashg'ulotlarida samarali natijalarga erishish uchun zamonaviy, noan'anaviy, innovatsion metodlarga ehtiyoj seziladi. Amaliyotga tatbiq etilishi ko'zda tutilgan yangi metodlar dars jarayonida pedagogik tajribadan o'tkazilgandagina uning samaradorligi aniqlanadi. Ana shunday metodlardan biri Tiflopedagogik metodlar bo'lib, uning tatbiq etilishi bugungi kunda zamon talabidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'RQ-641-sonli "Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida". 22.07.2020 www.lex.uz
2. Germaniyada ta'lim tizimlari va uning turlari haqida ma'lumot. (abiturtest.uz)
3. Shcherbakova T. "Germanitafa inklyuziv ta'lim: natijalar va ishlab chiqarishlar". Zugriff am 17. April 2019. 347-b.
4. Ochilova M.O. "Ko'zi ojiz bolalarga ta'lim-tarbiya berishning pedagogik asoslari". PEDAGOGIK MAHORATIlmiy-nazariy va metodik jurnal. 2023, № 5. 55-b. <https://buxdu.uz>
5. Mirziyoyev Sh..M. "Ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchi bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab-internatlarda ta'lim berish sifatini oshirish hamda ular faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-209-son. 18.04.2022. <https://lex.uz/docs/-5966089>
6. Hamidova M.U. "Maxsus pedagogika". O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. o'quv qo'llanma. T – 2018 7-b